

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

CHORIYEV SANJAR HAMZAYEVICH

**O‘ZBEKISTONDA ADABIYOT VA SAN’AT TARIXI (SURXONDARYO
VILOYATI MISOLIDA, 1920–1990-YILLAR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026-yil

UDK: 821.512.133.09(575.151)''1920/1990''

7.03(575.151)''1920/1990''

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Choriyev Sanjar Hamzayevich

О‘zbekistonda adabiyot va san’at tarixi (Surxondaryo viloyati misolida, 1920-1990 yillar).....3

Чориев Санджар Хамзаевич

История литературы и искусства в Узбекистане (на примере Сурхандарьинской области, 1920-1990-е годы).....25

Choriev Sanjar Hamzaevich

History of Literature and Art in Uzbekistan (on the example of Surkhandarya region, 1920-1990s).....51

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....56

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR
BERUVCHI PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

CHORIYEV SANJAR HAMZAYEVICH

**O‘ZBEKISTONDA ADABIYOT VA SAN’AT TARIXI (SURXONDARYO
VILOYATI MISOLIDA, 1920–1990-YILLAR)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

**Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Termiz – 2026-yil

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Tar1254 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.tersu.uz) hamda «Ziyonet» Axborot-ta'lim portali (www.ziyonet.uz) da joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tursunov Saypulla Narzullayevich
tarix fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Qobulov Eshbolta Atamurodovich
tarix fanlari doktori (DSc), professor

To'rayeva Matluba Xoliqulovna
tarix fanlari doktori (DSc), professor

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «23» may soat 10.00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. TerDU, 2-bino, 4-qavat, majlislar zali). Tel.: +998762231311; e-mail: termizdu@umail.uz

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (395 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy). Tel/faks: 03762217690.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «12» may kuni tarqatildi.
(2026-yil «12» may dagi 17 raqamli reyestr bayonnomasi).



T.R. Pardayev

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

O.A. Xamidov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash kotibi, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

X.E. Xolmo'minov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, tarix fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonda ma'naviy yuksalish omilini hayot kechinmalari bilan taqqoslab beradigan adabiyot va san'at insonning aqliy qobiliyatini shakllanishi, rivojlanishi uchun muhim omil hisoblangan insonparvarlik, ezgulik va bunyodkorlik-milliy g'oyalarning poydevori¹ kabi e'tiqodlarni paydo bo'lishiga munosib hissa qo'shib kelgan. Ayniqsa, adabiyot va san'atga ta'sir qiluvchi siyosiy tuzumlar tufayli yuzaga kelgan yangi boshqaruv tizimi o'zaro manfaatlarni aniq voqeliklarga tayangan holda gohida mafkuraviy tazyiqlarga uchraganligini tarixiy jihatdan ilmiy xolisona bayon etish imkoniyatini yuzaga keltirdi.

Dunyoning rivojlangan davlatlaridagi ilmiy-tadqiqot markazlarida xalqlarning moddiy va ma'naviy merosini o'zida mujassam etgan adabiyot hamda san'atni o'rganishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu jarayonda adabiy-badiiy muhitning shakllanishi, milliy san'atning rivojlanish qonuniyatlari hamda ularning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni ilmiy tahlil qilinib, turli ilmiy loyihalar va tadqiqot dasturlari amalga oshirilmoqda. Uzoq yillar davomida shakllangan qadriyatlar o'rnini buzg'unchi g'oyalar egallab olishiga yo'l qo'ymaslik uchun badiiy va san'at asarlarini ilmiy, tarixiy jihatdan o'rganish² mavzuning dolzarbligini belgilaydi.

Yangi O'zbekistonda adabiyot va san'at tarixini Surxon vohasi misolida xolisona tahlil etish, ma'muriy buyruqbozlik tuzumi sharoitida adabiy-badiiy muhit va milliy qadriyatlarning cheklanganligini tanqidiy yoritishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yurtimizda mustaqillik yillaridan boshlangan ma'naviy-axloqiy yangilanish o'zbek xalqining tarixiy xotirasini qayta tiklash asosida sovet mafkurasi davrida Markaz manfaatlariga moslashtirilgan adabiyot va san'at soha xodimlarining milliy o'zlikni anglash borasidagi qarashlari, e'tiqodlari hamda ijodi siyosiy jihatdan siquvga olinganligiga qaramay mahalliy ijod ahlining faoliyatini tarixiy manbalar asosida ilmiy tahlil qilish mavzuning zaruriyatini belgilaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti 2017-yil 30-iyundagi "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi huzurida O'zbekistonning "Eng yangi tarixi" bo'yicha Jamoatchilik kengashi faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi qarori, 2017 yil 8-sentyabrdagi "O'zbekiston Respublikasida ma'muriy islohotlar konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi farmoni, 2021-yil 12-mart-PF-6190-sonli "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va san'at sohasini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2023-yil 17-avgust – PQ-302-sonli "Adabiyot va san'at sohasini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi Qarorlari hamda sohaga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan asosiy vazifalarni amalga oshirishda bu dissertatsiya ma'lum darajada xizmat qiladi.

¹ Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир. – Тошкент: Тасвир, 2021. – Б. 36.

² Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир. – Тошкент: Тасвир, 2021. – Б. 273.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot Respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish hamda ularni amalga oshirish yo‘llari” dasturining ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Tanlangan mavzuning tarixshunosligiga oid izlanishlar olib borilgan bo‘lib, ular davri, hududi va yondashuviga ko‘ra shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Sovet davri tadqiqotlari;
2. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda amalga oshirilgan tadqiqotlar.

Mavzuning 1920-1990 yillar davri misolida olinishiga sabab, Surxon vohasi hududida sovet hokimiyatini o‘rnatilishida kommunistik mafkura milliy adabiyot va san‘atga qarshi kurashning boshlanishi hamda 1990-yillar yakunida sovet davlatini inqirozi boshlanishiga hissa qo‘shgan milliy adabiyot va san‘atning katta siyosiy kuch sifatida mustaqillikni ta’minlanishiga oid tarixiy voqealar xolisona yoritildi.

Birinchi guruhga bag‘ishlangan sovet hukmronligi davrida nashr etilgan adabiyot, risola, tadqiqotlar kiradi. Ushbu asarlar kommunistik ruhda yozilgan, partiyaviy, sinfiy jamiyat manfaatlarini himoya qilingan, proletar va dehqonlar sinfi qarashlari bayon qilingan. Partiyaviy adabiyot va san‘at g‘oyalariga asos bo‘lgan, sotsializm va kommunizm dasturlarini amalga oshirishga oid qarashlari bayon etilgan V.I.Lenin³, M.S.Gorbachyov⁴ kabi KPSSning boshqa rahnamolari rus milliy shovinizmni targ‘ib qiluvchi adabiyotlarda yagona kommunistik mafkurani targ‘ib etganligi bilan ajralib turadi. Sovet hukmron doiralari tomonidan yozilgan mavzuga oid adabiyotlarning asosiy qismida adabiyot va san‘at sohasini rivojlantirishda kommunistik mafkura asosiy mezon qilib olingan. Bu jihatlar turli ilmiy tadqiqotlar hamda nashr etilgan adabiyotlarda ham o‘z ifodasini topgan. Kommunistik mafkurada yozilgan asarlari tanqidiy, xolisona va taqqoslash ruhida o‘rganish zamonaviy ilmiy tadqiqotlar uchun qimmatli ma’lumotlar beradi⁵.

Tadqiqot davomida ilk bor Surxon vohasidagi mahalliy ziyolilardan iborat adabiyot va san‘at ahli ijodi sovet mafkuraviy bosimi nazoratida bo‘lib, mahalliy ziyolilar, jumladan, adabiyot va san‘at vakillarini muntazam tarzda surgun, qatag‘on, ommaviy qatl etilishga qaramasdan ular o‘zbek xalqining ozodlik uchun kurashini, milliy ziyolilar olib borgan harakatlarini, sovet hokimiyatining millatchilik, milliy kamsitish siyosatiga qarshi o‘z asarlarni, she’r va tanqidiy hajviy g‘azallarni xalqimizga yetkazgan va aksariyati shu yo‘lda shahid bo‘lgan⁶.

³ Ленин В.И. Тўла асарлар тўплами. 4-том. – Т.: Ўзбекистон, 1973. – Б. 393.

⁴ Горбачев М.С. Партиянинг ҳозирги шароитдаги миллий сиёсати тўғрисида. – Т.: Ўзбекистон, 1989. – Б. 47.

⁵ Х.Дониёров, С.Мирзаев, С.Шермухаммедовларнинг “Адабиёт ва санъатда Ленинча партиявийлик принциплари. – Т.: Фан, 1966. – Б. 78. Султонова М. Ўзбек совет адиблари. – Т.: Ўздавнашр, 1963. – Б. 123.

⁶ Мирзо Умар. Муножот. – Фарғона, 2001. – Б. 59. Азимов М. Сурхондарё иждокорлари. – Қарши: Насаф, 2006. – Б. 19.

Совет ҳукуматининг XX аср 20-30 йиллардаги “маданий инқилоб” сиёсати, О‘zbekистонда адабиёт ва сан’ат тарихини илмий жиҳатдан о‘рганиб тahlil etgan F.U.Tilovatov⁷, T.N.Qoriniyozov⁸, M.Qoraxonov⁹, I.Qodirov, X.N.Po‘latov¹⁰,

S.Shermuhhammadov¹¹, R.M.Sultonova¹², M.Vahobov¹³, M.Rahmonov¹⁴, N.Rahmonov¹⁵ va boshqalarning bir qator adabiyotlarda, илмий tadqiqotlarda adabiyot va san’at, madaniy hamda ma’naviy qadriyatlar, shuningdek xalq, jamiyat, mafkura va ma’naviy omillarning ijtimoiy hayot bilan o‘zaro aloqadorligi asosan marksistik hukmron mafkura hamda siyosiy qarashlar doirasida tahlil qilingan.¹⁶ Shu bilan birga, mazkur adabiyotlarda adabiyot va san’atning madaniy merosga bo‘lgan munosabati, uning ma’naviy omil sifatidagi ahamiyati hamda madaniyatning insoniyat taraqqiyotidagi o‘rni bilan bog‘liq masalalar ham alohida e’tibor qaratilgan bo‘lib, bu borada muhim va ijobiy ilmiy xulosalar ilgari surilgan.

Совет davrida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlarda Surxon vohasidagi adabiyot va san’at muassasalari faoliyati ma’lum darajada o‘rganilgan. Bu ishlar sirasiga shu davrda nashr etilgan A.O.Eshquvvatov¹⁷, S.Shermuhhammadov¹⁸, M. Iskandarov¹⁹, N.K. O‘ljaboyeva²⁰, N.Achilov²¹larning tadqiqotlarini ko‘rsatish mumkin. T.Rashidovanning ilmiy ishi tadqiq etilayotgan mavzuga bevosita aloqador bo‘lib, unda 1952-1965 yillarda Surxondaryo viloyatida madaniy — ma’naviy hamda matbuot haqida o‘sha davr talablari asosidagi fikrlar bayon etildi²². Ikkinchi jahon urushi yillarida sovet mafkurasini markscha-lenincha adabiyot sofligini saqlab qolish, milliy mahalliy ijod ahlini asarlarni siyosiy cheklov nazoratiga olish, partiya talablariga zid bo‘lgan asarlarni taqiqlash hamda ularni nazoratga olish borasida ommaviy surgun siyosati amalga oshirilib, xalqimizning mahalliy ijod ahli qamoqlarga olindi hamda asarlari ommaviy tarzda chop etish taqiqlandi. Shunday mustabid tuzumning ta’siri hamda milliy

⁷ Тиловатов Ф.У. Совет ҳокимиятининг XX аср 20–30 йиллардаги “маданий инқилоб” сиёсати ва унинг Ўзбекистонда амалга оширилиши: тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс. автореф. – Т., 2009.

⁸ Қориниёзов Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Т.: Қизил Ўзбекистон, 1951.

⁹ Қорахоннов М. Совет Ўзбекистони маданияти. – Т.: Ўздавнашр, 1951. – Б. 42.

¹⁰ Қодиров И, Пулатов Х.П. Культурно-воспитательная деятельность Советского государства в Узбекистане. – Т.: Госиздат, 1959. – Б. 46.

¹¹ Мухаммедов С. Культура Советского Узбекистана. – Т.: ТашГУ, 1985. – Б. 78.

¹² Султонова М. Ўзбек совет адаблари. – Т.: Ўздавнашр, 1963. – Б. 25.

¹³ Ваҳобов М. Ўзбек социалистик миллати. – Т.: Ўзбекистон, 1960. – Б. 41.

¹⁴ Раҳмонов М. Ўзбек театри. – Тошкент: Фан, 1975

¹⁵ Раҳмонов М. Ўзбек театри. – Т.: Фан, 1975. – Б. 63.

¹⁶ Музыкальная фольклористика Узбекистана. – Т.: Госиздат, 1963. – С. 37.

¹⁷ Эшқувватов О. А. История развития социалистических городов Карши и Шахрисабза (1925–1965 гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Т., 1970. – С. 18.

¹⁸ Шермухаммедов С. Рассвет и сближение национальных культур народов СССР. Автореф. дисс. ... докт. филос. наук. – Т., 1973. – С. 24.

¹⁹ Искандаров М. Идеологическая работа компартии Узбекистана в период развитого социализма (1959–1970 гг.). Автореф. дисс. ... докт. ист. наук. – Т., 1973. – С. 31.

²⁰ Улжабоева Н. К. Развитие народного образования в Узбекистане в период 1946–1970 гг. (на материалах Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областей). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Т., 1974. – С. 22.

²¹ Ачилов Н. Культурное строительство в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях (1946–1958). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Т., 1974. – С. 19.

²² Рашидова Т. Культурное строительство в Кашкадарьинской и Сурхандарьинской областях (1959–1965). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Т., 1973. – С. 27.

adabiyotga qarshi harakatlariga qaramay, xalqimiz orzu-umidlarini o'z ichiga olgan asarlar turli voqea hodisalar o'z qahramonlarni yaratib badiiy asarlar chop etildi²³.

Ikkinchi guruhni mustaqillik davrida O'zbekistonda sovet davri adabiyoti va san'ati masalalarini yoritishga qaratilgan ilmiy asarlar, shuningdek, mazkur yo'nalishda amalga oshirilgan tadqiqot va ilmiy izlanishlar N.X.Nasriddinova²⁴, M.X.To'rayeva²⁵, M. Nurmammedova²⁶, F.Abduvohidov²⁷, T.M.Sohibova²⁸, T.R.Pardayev²⁹, E.Tilayev³⁰, S.N.Tursunov³¹, E.A.Qobulov³², R.U. Normurodov³³ X.M.Xudoymurodova³⁴ U.Y.Hayitova³⁵ va boshqalarning tadqiqotlari misol bo'ladi. Mustaqillik yillarida o'zbek tarixshunosligi yangi uslubiy tamoyillar hamda yangi sifat darajasiga ko'tarilgan asarlar bilan boyitib borildi³⁶, ushbu davr tadqiqotlarida adabiyot va san'at sohasidagi madaniy qurilish tarixini o'rganishda bir tomonlama yondashuvdan chekinib, masalaga umuminsoniy qadriyatlar va milliy manfaatlar asosida yondashishga intilmoqdalar. Shu asosda adabiyot va san'at tarixining turli davr va yo'nalishlarini qamrab olgan ilmiy tadqiqotlar olib

²³ Р. Узоқова. “Мардона юринг”, “Сарвиқад”, “Ғалаба” шеърйй тўпламлари. – Т.: Ўқитувчи, – Б. 26, 72, 89; О. М. Авлиёқулов. “Саратон”, “Полвон шаъни”, “Вазият тақозоси билан”, “Биринчи кўча”. – Т.: Ёзувчи, 1984. – Б. 46, 67, 104; П. Шоимов. “Темир дарвоза тоғлари” (1975), “Дарбанд темир дарвозаси” (1977), “Темир дарвоза ёнида” (1982). – Т.: Ўқитувчи. – Б. 236; И. Норбоев. “Қоплон ва коплончалар”, “Довонда”. – Т.: Маънавият, 1991. – Б. 98; Т. Эшбоев. “Шўрчи шухрати ва инсон кудрати”. – Т.: Фан. – Б. 238; А. Чошев (Арбоб Чош). “Сурхон баҳори”. – Душанбе, 1989. – Б. 132; Ю. В. Дарбандий (Юсуф Валиқулов). “Сурхон қасидаси”, “Фидо айлай”, “Бўлиб муштоқ висолингдан”. – Термиз: Жайхун, 1989. – Б. 153;

²⁴ Nasriddinova N.X Surxondaryoda teatr va musiqa san'ati tarixi (XX asr 20-yillaridan XXI asr boshlarigacha) Monografiya – Toshkent: Metodist nashriyoti, 2025

²⁵ Тўраева М.Х. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: муаммолар ва оқибатлар (1920-1940 йй.) (Жанубий Ўзбекистон мисолида): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертатсия автореферати. – Тошкент, 2001.

²⁶ Nurmammedova M. O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy ishlar tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1993.

²⁷ Абдувоҳидов Ф. Сурхондарё мусикали драма театри кеча ва бугун. – Тошкент: Ворис нашриёти МЧЖ, 2017.

²⁸ Соҳибова М.Т. Ўзбекистонда маданий ҳаёт: тажриба ва муаммолар (Жанубий вилоятлар мисолида (1946-1985 йй): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия. – Тошкент, 2008

²⁹ Пардаев Т.Р. Жанубий Ўзбекистонда 1945-1991 йилларда ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаёт. – Тошкент: Янги нашр, 2019. – Б. 230

³⁰ Тилаев Э. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётдаги ўзгаришлар (Жанубий вилоятлар мисолида): Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган диссертатсия автореферати. – Тошкент, 2010.

³¹ Турсунов С., Қобулов Э., Муртазоёв Б., Пардаёв Т. Сурхондарё тарих кўзгусида. –Т., Шарқ, 2001. –Б. 382., Турсунов С., Қобулов Э., Муртазоёв Б., Пардаев Т. Сурхондарё тарихи. –Тошкент: Шарқ, 2004., Турсунов С., Тўхтаев А., Жарқўрғон. – Тошкент: Фан, 2008., Турсунов С. Денов. – Тошкент: Фан, 2009, Турсунов С., Рашидов Қ. Бойсун. – Тошкент: Академнашр, 2011, Турсунов С., Пардаев Т., Турсунова Н., Муртазоёв Б Ўзбекистонда бахшичилик санъатининг шаклланиши ва тараққиёт тарихи. – Тошкент: Фан ва технология, 2014

³² Qabulov E. Surxondaryo tarixi. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2021.

³³ Нормуродов Р. Шукур Холмирзаёв асарларининг тил хусусиятлари. Филология фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатсия автореферати. – Тошкент: 2001.

³⁴ Xudoymurodova X. Nodir Normatovning badiiy mahorati. Filologiya bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan disertatsiya avtoreferati. – Qarshi. 2020.

³⁵ Hayitova Y. Zamonaviy o'zbek she'riyatida ijodkor shaxs ruhiyati va badiiy talqin uyg'unligi (Ra'no Uzoqova va Shafoat Rahmatulla Termiziy asarlari misolida): Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Termiz: 2024.

³⁶ Маврулов А. Культура Узбекистана на современном этапе. – Т.: Фан, 1992. – 55 с., Нишанов М.Н. Обновление духовной жизни natsii. – Т.: Фан, 1992. – 106 с.

borilmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida adabiyot va san'atni milliy o'zlikni anglaydigan tarzda tiklash, siyosiy tahdidlar ta'sirga olingan yozuvchilar, shoirlar hayoti va ijodini tiklash, ularni chop etilmay qolgan asarlarni nashr etish va o'zbek xalqiga yetkazish borasida davlatimizning milliy mafkura asosida shakllantirayotgan g'oyalarni adabiy ruhda talqin qilish borasida asarlar yaratila boshlandi³⁷.

Mustaqillik yillarida ayrim jamiyatshunos olimlar tomonidan Surxon vohasida sovet hokimiyati yillarida adabiyot va san'at sohasining holatini yoritishga qaratilgan tadqiqotlar olib borildi. Mazkur asarlarda Surxon vohasida adabiyot va san'at muassasalarining shakllanishi va faoliyati haqida keng kitobxonlarga mo'ljallangan ma'lumotlar berilgan.

Surxon vohasi adabiyoti va san'ati tarixiga doir asarlar ichida ma'lum voqealarni ilmiy tahlil etgan S.Tursunov va boshqalarning "Surxondaryo tarixi", Jarqo'rg'on kitoblarida, Surxondaryoning sovet hukmronligi davridagi madaniy — ma'naviy va madaniyat tarixiga oid bir qator ma'lumotlar mavzuni yoritishga xizmat qiladi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni samarasi tufayli adabiyot va san'atining rivojlanishiga alohida e'tibor berilib, milliy urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosim va an'analarni aks ettiruvchi asarlar yaratilib, o'tmish davrdan to yangi O'zbekistonga taalluqli bo'lgan mukammal voqelikni bayon etuvchi asarlar xalqni o'ziga jalb eta boshladi. Mirzo Umar, R.Mo'minov, I.T.Botirov, N.Tolibova, S.Hoshimov, J.Imonov, S.To'raxo'jayevlarning asarlarda o'tmish va bugun hamda kelajakka bo'lgan munosabatlar, o'ziga xos xolislik, qalbdagi so'zlar asosida vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, o'zaro hamfikrlik, oilaviy tarbiyani takomillashtirish, yoshlarni vatanga sodiqlik ruhida tarbiyalash kabi voqeliklar bayon etilmoqda³⁸.

Mavzuga oid tadqiqotlarni tahlil etish jarayonida amaliy san'at durdonalarini tadqiq etgan tadqiqotchilarni asarlarida rassomlik, hunarmandchilik turlari hisoblangan yog'och o'ymakorligi, miskarlik, sandiqsozlik, taqinchoqlar, matolar bilan bog'liq jarayonlarni voha misolda davom ettirib kelayotgan san'at ustalari, taniqli rassomlar haqida asarlar yaratgan tadqiqotchilar ijodi ham xolisona o'rganib chiqildi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida Surxon vohasi ijodkorlarining hayoti va ijodiga bag'ishlangan asarlar ham ilmiy xolislik asosida o'rganildi. Ushbu manbalarda voha ijodkorlarining ma'naviy dunyoqarashi, hududning moddiy va

³⁷ Кодиров Б. Сурхондарё олимлари. – Тошкент: Меҳнат, 1990. – Б. 175; Нозилов Д. Усталар хақида ривоятлар. – Санъат, Тошкент, 1991, №6. – Б. 27–28; Ҳайит Н., Усмон Т. Кураш йиллари. – Тошкент: Меҳнат, 1992. – Б. 20; Нишанов М.Н. Обновление духовной жизни нации. – Тошкент: Фан, 1992. – 106 с.; Исмаилов Ҳалимов. Меҳр. – Жайхун, Термиз, 1994. – Б. 23; Ҳакимов А. Ўзбекистон бадиий куллулчилик мактаблари. – Восток, Тошкент, 1999, №1. – Б. 76–79; Шамсуддинов Р. Қагафон қурбонлари (1937 йил 10 август – 5 ноябрь). Иккинчи китоб. – Б. 244; Мустофақулов Р. Сурхон адиблари – болаларга. – Тошкент: Ёзувчи нашриёти, 2000.

³⁸ Мирзо Умар. Муножот. – Фарғона, 2001. – 59-бет, Раҳматулла Мўминов. Булбул эртақлари. – Асрнинг янги авлоди, Ботиров И.Т. Сурхондарё вилояти ўлкашунослик музейи тарихи. – Тошкент: Фан, 2001–2002. – 47 б. Тolibova Н. Ёгоч уймакорлиги санъати. – Мозийдан садо, Тошкент, 2008, №4. – Б. 20–22, Хошимов С., Иминов Ж., Тураходжаев С. Политические репрессии в Узбекистане в 20–30-х годах XX века. – Наука и современность, 2016. – С. 101.

madaniy hayoti xalqning orzu-intilishlari bilan uyg'un holda tasvirlangan. Ayniqsa, milliy qahramonlar qiyofasi vatanparvarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, mardlik, jasorat hamda dunyoviy bilimlarga intilish kabi fazilatlar asosida badiiy talqin etilgan bo'lib, shoirlar, yozuvchilar, rassomlar va san'atning boshqa namoyondalari g'oyaviy qarashlarini o'z ichiga olgan asarlar ham tadqiqot davomida ilmiy xolisona o'rganildi. Jumladan, Surxondaryo shoir-yozuvchi va amaliy san'at namoyondalarini Sh.Rashidov³⁹, A.Xolmirzayev⁴⁰, R.Mustafoqulov⁴¹, M.Abdullayev⁴², M.Sattorov⁴³, N.To'rayev⁴⁴, M.Azimov⁴⁵, T.Turdiyev⁴⁶, N.Narzullayev⁴⁷, J.Omonturdiyev⁴⁸, Q.Egamberdiyeva⁴⁹, Q.Rashidov⁵⁰ kabi adiblarining adabiy-badiiy asarlarida o'rganilgan. O'zbek adabiyotining rivojiga munosib hissa qo'shgan ijodkorlar hamda yosh avlod vakillarining badiiy asarlari ham tadqiqot jarayonida tarixiy nuqtai nazardan o'rganilib, ilmiy muomalaga kiritildi. Ushbu asarlarda vatan, milliy qadriyatlar, insonparvarlik, davr qahramonlari, millat manfaatlari yo'lida kurash, urf-odatlar hamda xalqning ertangi kunga bo'lgan ishonchi kabi g'oyalar, shuningdek moddiy va ma'naviy madaniyat tarixiga badiiy talqin asosida yondashuvlar o'z ifodasini topgan.

Yangi O'zbekiston davrida madaniy-ma'naviy sohadagi faoliyatlar adabiyot va san'atni moddiy qo'llab-quvvatlash, ijodkorlarga keng ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, ularning ijodida milliy ruhni mustahkamlash hamda yoshlar ma'naviy tafakkurini rivojlantirishga yo'naltirilgan asarlar va maqolalar yaratishni eng muhim va dolzarb masala sifatida ko'rsatmoqda.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, Surxondaryo viloyatining sovet hukmronligi davridagi adabiyot va san'at sohasiga oid masalalar alohida tadqiqot mavzusi sifatida ilgari o'rganilmagan. Mustaqillik davrida nashr etilgan fundamental asarlarda esa sovet davri adabiyot va san'ati tarixi faqat umumiy, keng qamrovli tarzda bayon qilingan.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Ushbu dissertatsiya ya'ni O'zbekistonda adabiyot va san'at tarixi (Surxondaryo viloyati misolida, 1920-1990 yillar)" Termiz davlat universitetining ilmiy tadqiqot ishlari doirasida bajarilgan.

³⁹ Рашидов Ш. Раъно. – Еркин ҳаёт журнали, № 5–6.

⁴⁰ Холмирзаев А. Ҳаёт манзаралари. – Тошкент: Санъат журнали, 2008. – Б. 28.

⁴¹ Мустафоқулов Р. Сурхон адиблари – болаларга. – Тошкент: Ёзувчи нашриёти, 2000.

⁴² Абдуллаев М., Сатторов М. Тоғлар гавҳари. – Тошкент: Фан, 2001. – Б. 28.

⁴³ Абдуллаев М. Сатторов М. Тоғлар гавҳари. -Т.: Фан, -2001. Б.28.

⁴⁴ Тўраев Н. Ўтмишимиз дафтарлари. – Тошкент: Мериус, 2014. – Б. 104.

⁴⁵ Азимов М. Сурхондарё ижодкорлари. – Қарши: Насаф, 2006. – Б. 129.

⁴⁶ Турдиев Т. Бахт қўшиғи. – Тошкент: Ғафур Ғулом нашриёти, 2016. – Б. 10.

⁴⁷ Нарзуллаев Н., Турдиев Т. Раъно Узоқова Талпин, юрак. – Тошкент, 1981. – Б. 8.

⁴⁸ Омонтурдиев Ж. Шеърга кўчган туйғулар. (Шеърлар, мувашшаҳлар, тўртликлар). –Термиз: ТерДУ нашри,

⁴⁹ Эгамбердиева Қ. Чинорга айланган умр (хотиранома). – Тошкент: Тафаккур, 2014. – Б. 8.

⁵⁰ Рашидов Қ. Бойсун олимлари. – Тошкент: МАТРИХ ПРИНТ МҲСЖ нашриёти, 2008. – Б. 265.

Tadqiqotning maqsadi. O‘zbekistonda adabiyot va san‘at tarixi (Surxondaryo viloyati misolida, 1920-1990 yillar)ning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

milliy adabiyot va san‘atga nisbatan sovet hokimiyatining dastlabki siyosatining mohiyati va mazmuniga oid dalillar bilan ochib berish;

sovet hokimiyatining dastlabki yillarida voha mahalliy, milliy adabiyot va san‘atga oid sovet siyosatining asosiy maqsadi va soha rivojining nazariy-metodologik asoslarini o‘rganish va uning jamiyat rivojida o‘rnini ta’riflash;

sovet mafkurasi ta’siri ostida faoliyat yuritgan adabiyot va san‘at vakillarining ijodiy faoliyatini, shuningdek ularning asarlarida milliy urf-odat, an‘ana va diniy qadriyatlarining aks etishini Surxon vohasi misolida ko‘rsatish va ilmiy tahlil qilish;

Surxon vohasida rassomchilik san‘atiga kommunistik mafkura siyosatining ta’sirini, natijalar va tahlillarni tarixiy ma’lumotlar asosida o‘rganib, milliy san‘atning cheklashi hamda “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” madaniyatning siyosiy-mafkuraviy jihatdan mohiyatini ochib berish;

Sovet hokimiyati siyosatidan kelib chiqib, adabiyot va san‘at muassasalari faoliyatining konseptual-metodologik nuqtai nazardan cheklanganligini tahlil etish;

– Vohada san‘at sohasidagi milliy hunarmandchilikning o‘ziga xos xususiyatlari va adabiyot va san‘at muassasalarining sovet hukmronligi davridagi faoliyatini tarixiy materiallar asosida tahlil etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekistonda adabiyot va san‘at tarixi (Surxondaryo viloyati misolida, 1920-1990 yillar) ga oid ma’lumotlarni yoritish hisoblanadi.

Tadqiqotning predmeti O‘zbekistonda adabiyot va san‘at tarixiga oid o‘zgarishlar va muammolar tahlili tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda tarixiy-xronologik, hududiy yondashuv, xolislik, tizimli tahlil, og‘zaki tarix, kuzatuv, qiyosiy-tahlil, statistik tahlil, fanlararo yondashuv usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

vohada sovet hokimiyati tomonidan dastlabki yillarida kommunistik mafkura siyosati tufayli milliy siquvga olingan milliy adabiyot va san‘at xodimlari faoliyati ilk bor arxiv hujjatlari va e’lon qilinmagan qo‘lyozmalar hamda “eski o‘zbek tili”, “lotin tili” va dastlabki rus-kiril yozuvida chop etilgan adabiyotlar asosida aniqlangan va ularni milliy madaniyatga qo‘shgan xizmatlariga oid ma’lumotlar asoslab berilgan;

voha misolida ilk bor o‘zbek adabiyoti va san‘at namoyondalari vakillari aniqlanib, ularning asarlari va ijodiy izlanishlari, milliy manfaatlarni badiiy va san‘at yo‘nalishida milliy o‘zlikni himoya qilishga doir harakatlari, ijod-ahliga nisbatan tazyiqlar, surgun va qatag‘on qilinganlar hayoti va ilk ijod namunalari doir ma’lumotlar yoritib berildi;

sovet hokimiyatini mustahkamlash, kommunistik mafkuraga mos yangi adabiyot va san‘at namoyondalari shakllantirish borasidagi urinishlar, sotsializm manfaatlariga xizmat

qilayotgan ishchi, dehqon, chorvadorlardan qahramonlari “qiyofasi”ni badiiy talqinda yaratishga doir ma’lumotlar xolisona bayon etildi;

urushdan keyingi yillarda adabiyot va san’at sohasini mafkuraviy jihatdan “tozalash”, davlat manfaatlariga tahdid soluvchi “guruhbozlikni” tugatish, pioner, komsomol, kommunist, “besh yillik zarbdori”, “Sifat belgisi” kabi kommunistik mafkura tarafdorlarini olqishlovchi asarlar, shunday og‘ir vaziyatga qaramay o‘zligini yo‘qotmagan ijod ahlining matonati ma’lumotlar asosida ko‘rsatib berilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari. Surxondaryo vohasida madaniy hayot, adabiyot va san’at sohasida olib borilgan siyosat hamda uning hududiy madaniy jarayonlarga ta’siri ilmiy jihatdan tahlil qilindi. Jumladan, sovet hokimiyatining milliy adabiyot va san’atga nisbatan olib borgan siyosati, urushdan keyingi yillarda adabiyot va san’atda milliy kamsitish jarayonlari, shuningdek turg‘unlik va qayta qurish davrida vohada san’at muassasalari faoliyati hamda ijodiy muhitning rivojlanish xususiyatlari ochib berildi. Shu bilan birga, vohada teatr, tasviriy san’at va xalq amaliy hunarmandchiligi an’analarning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari yoritildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda tarix fanida tan olingan yondashuv va usullar qo‘llanilgan, katta hajmdagi manbalar, tarixiy-badiiy adabiyotlar majmuasi, arxiv hujjatlari, ilmiy tadqiqotlarni qiyosiy tahlil asosida fanlararo yondashuvdan foydalanilgan, ularning asosiy qismi birlamchi manbalarga asoslangan, tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati mavzuga oid jarayonlarini aniqlashga xizmat qiluvchi nazariy-metodologik xulosalarni mukammallashtirib, adabiyot va san’at sohasida ilgari surilgan nazariy qarashlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar sohasida sovet davri bo‘yicha yangi tadqiqotlar olib borish uchun ma’lumotlar zaxirasi bo‘lib xizmat qiladi.

Ilmiy tadqiqotning amaliy natijalari oliy ta’lim muassasalari professor-o‘qituvchilari, talabalar va magistrantlarga O‘zbekiston tarixi bo‘yicha darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar va o‘quv dasturlarini yaratishda, ijtimoiy-gumanitar sohalarda ma’ruzalar o‘qishda va maxsus kurslar hamda akademik darsliklarni ishlab chiqishda keng qo‘llaniladi. Shuningdek, tadqiqot natijalari respublika va viloyatlardagi o‘lkashunoslik muzeylari fondlarini yangi materiallar bilan boyitishda keng foydalanishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbekistonda adabiyot va san’at tarixi (Surxondaryo viloyati misolida, 1920-1990 yillar) mavzusini o‘rganish yuzasidan to‘plangan ma’lumotlar asosida:

Surxondaryo misolida sovet hokimiyatini mafkuraviy siyosati natijasida ta’qibga uchragan milliy adabiyot va san’at namoyondalari to‘g‘risidagi arxiv hujjatlari, nashr etilgan adabiyotlar asosida aniqlandi, ijodkorlarning surgun va “qatag‘on” qilinishi, ularning o‘zbek madaniyatga qo‘shgan xizmatlariga oid ma’lumotlar asosida “O‘zbekiston tarixi” telekanalining “Taqdimot” ko‘rsatuvi ssenariysi tayyorlanganligi rasmiy ma’lumotnoma bilan tasdiqlangan (O‘zbekiston

Milliy teleradiokompaniyasining 2023-yil 22-maydagi 06-48-994-sonli hujjati). Mazkur ko'rsatuvda, o'zbek adabiyoti va san'at namoyondalari vakillari aniqlanib, ularni asarlari va ijodiy izlanishlari, milliy manfaatlarni badiiy va san'at yo'nalishida milliy o'zlikni himoya qilishga doir harakatlari, ijod-ahliga nisbatan tazyiqlar, surgun va qatag'on qilinganlar hayoti va ilk ijod namunalariga doir ma'lumotlarni yoritishga xizmat qildi;

Kommunistik mafkuraga mos yangi adabiyot va san'at namoyondalarini shakllantirish borasidagi urinishlari, sotsializm manfaatlariga xizmat qilayotgan ishchi, dehqon, chorvadorlardan qahramonlari "qiyofasi"ni badiiy talqinda yaratishga doir ma'lumotlardan xolisona tahlilda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Surxondaryo viloyati bo'limining 2023-yil 8-maydagi 01-09/25-son ma'lumotnomadan foydalanildi. Mazkur tadqiqotda urushdan keyingi yillarda adabiyot va san'at sohasini kommunistik mafkuraga qarshi shaxslar va siyosiy shoirlarni olqishlovchi asarlar yaratishga majburlash, shunday og'ir vaziyatga qaramay o'zligini yo'qotmagan ijod ahlining matonatini targ'ib etish va ommalashtirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Dissertatsiya tadqiqoti natijalari jami 5 ta ilmiy-amaliy konferensiyalarda aprobatsiyadan o'tkazilgan, jumladan, 3 ta xalqaro hamda 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlarda ma'ruza qilinib, ilmiy jamoatchilik tomonidan muhokama etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish chop etilgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola (3 tasi respublika, 5 tasi xorijiy jurnalda), boshqa respublika va xalqaro ilmiy jurnallarda 2 ta maqola, shuningdek 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida tezislar e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Tadqiqot kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan manba va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 159 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi, mavzuning o'rganilganlik darajasi, dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi ko'rsatilgan, dissertatsiyaning maqsadi, vazifalari, obyekti, predmeti, usullari tavsiflangan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, olingan natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining joriy qilinishi, tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi "**Adabiyot va san'at sohasida O'zbekistonda sovet hokimiyatining bir tomonlama siyosatining dastlabki**

natijalari” deb nomlanib, bu bobda O‘zbekistonda sovet hukumatining mahalliy, milliy madaniyati va ma’naviyatiga nisbatan yuritgan milliy kamsitish siyosatini manbalar asosida tahlil qilish, ikkinchi tomondan sovet hukumatining madaniy-ma’naviy siyosatining tub mohiyati va mazmunini adabiyot va san’at misolida ochib berish mavzuning asosiy yo‘nalishdan iborat.

Dissertatsiyaning birinchi bob birinchi paragrafi “*Sovet hokimiyatining milliy adabiyot va san’atda dastlabki siyosatining mazmun va mohiyati*” deb nomlanib, Dissertatsiyaning birinchi bobining birinchi paragrafi “Sovet hokimiyatining milliy adabiyot va san’atdagi dastlabki siyosatining mazmun va mohiyati” deb nomlanadi. Sovet hukumatining mafkuraviy siyosatini amalga oshiruvchi asosiy kuch yagona Kommunistik partiya bo‘lib, u barcha sohalar ustidan hukmronlik qilgan. Partiya tomonidan sovet adabiyoti va san’ati millionlab kishilar uchun shodlik va ilhom manbai bo‘lib xizmat qilishi, ularning irodasi va fikrlarini ifodalashi, g‘oyaviy jihatdan boyishi hamda ma’naviy tarbiyasi uchun muhim vosita bo‘lishi lozimligi soha ijodkorlariga singdirilgan. Sovet hukumatining mafkuraviy targ‘ibotiga ko‘ra, adabiyot va san’at inson tabiatining nozik jihatlariga chuqur kirib borishi, kommunizm qurayotgan millionlab sovet kishilarining ma’naviy qiyofasini shakllantirishga xizmat qilishi kerakligi ta’kidlangan.

Mazkur paragrafdagi adabiyot va san’atning partiyaviyligi, badiiy ijodni g‘oyasizlik va maqsadsiz san’atbozlikdan xalos etish masalalari hamda uning jamiyat taraqqiyoti yo‘lida faol ijtimoiy kuch sifatida xizmat qilishi zarurligi haqidagi g‘oyalar tahlil qilinadi. Ushbu qarashlarning nazariy asoslari dastlab K. Marks va F. Engels tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, ular adabiyot va san’atni jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar bilan uzviy bog‘liq holda talqin etganlar. V. I. Leninning adabiyot va san’atning partiyaviyligi haqidagi qarashlari uning 1905-yilda yozilgan “Partiya tashkiloti va partiya adabiyoti” nomli asarida batafsil bayon etilgan. Mazkur asarda u adabiyotning partiyaviyligi haqidagi marksistik ta’limotni nazariy jihatdan rivojlantirib, uni ilmiy-materialistik xulosalar bilan asoslab berdi. Lenin nazarida, adabiyot va san’at jamiyat hayotidan ajralgan holda emas, balki siyosiy kurash jarayonining muhim tarkibiy qismi sifatida faoliyat yuritishi zarur edi.⁵¹

1920-yillarda Surxon vohasida sovet hokimiyatining o‘rnatilishi jarayonida yer komissiyalari faoliyati mahalliy aholining urf-odatlarini va diniy qadriyatlariga nisbatan keskin siyosat olib borilishi bilan kechdi⁵². Jumladan, Sherobod tumani G‘urjak qishlog‘ida faoliyat yuritgan T. Amirxonov, B. Shaganov, S. Xidirov va A. Shukurovlar boshchiligidagi yer komissiyasi mahalliy aholiga nisbatan bosim o‘tkazib, ayrim fuqarolarni asossiz ravishda ro‘yxatlarga kiritgan.⁵³ Oqqo‘rg‘on qishlog‘ida J. Pirmqulov va A. Xo‘jamurodovlar tomonidan tuzilgan “maxsus” ro‘yxatlar orqali yer egaligi masalasida noqonuniy qarorlar qabul qilingan. Qishloq

⁵¹ Горбачев М.С. Партиянинг hozirgi sharoitdagi milliy siyosati tuzilishida. – Toshkent: Uzbekiston, 1989. – B. 74.

⁵² Турсунов С.Н., Тўхтаев А. Жаркўрғон. – Toshkent: Fan nashriyati, 2008. – B. 303.

⁵³ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 33-фонд, 32-рўйхат, 17-хужжат, 5-варак.

kengashi raisi M. Ibrohimov ushbu holatlarning noto'g'ri ekanligini bildirgani uchun qatag'on ro'yxatiga kiritilgan. Shuningdek, Sherobod tumanidagi Dehqonobod qishlog'ida S. Qurbonov asossiz savodsizlikda ayblanib qamoqqa olingan va surgun qilingan. Xo'jaqiya qishlog'ida Muhammadqul Mo'minov esa diniy xurofot tarqatishda ayblanib qatag'onga uchragan. Natijada mahalliy ziyolilar, adabiyot va san'at namoyandalari ta'qib qilinib, ko'plab madaniy maskanlar, kutubxonalar va diniy muassasalar yo'q qilindi. Bu jarayon sovet hokimiyatining Surxon vohasida mafkuraviy nazoratni kuchaytirishi va mahalliy jamiyatni yangi siyosiy tizimga bo'ysundirishiga olib keldi.

Dissertatsiyaning birinchi bob ikkinchi paragrafi "*Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida voha mahalliy milliy adabiyot va san'atga nisbatan siyosati*" deb nomlanadi. Unda sovet hokimiyatining milliy adabiyot va san'atga nisbatan olib borgan siyosati, mahalliy ijodkorlarning esa milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarni o'z asarlarida aks ettirish orqali milliy ruhni saqlab qolishga intilgani tahlil qilingan. Surxon vohasi ijodkorlari Mulla Umar Xo'shachin, Mulla Xolihmat Panjobiy, Abdulla Qurbon Rajab Boysuniy, Mulla Do'st Nodir Boysuniy, Yo'ldosh Irismetov, Manjumi, Mayusiy, Abdulmannon Ohunjon, Mulla Sattor va Eshboy Pardayevlarning ijodiy faoliyati hamda ularning milliy madaniyatni saqlashdagi o'rni ochib berilgan.

1920–1930-yillarda Surxon vohasida sovet hokimiyati adabiyot va san'at sohasini rivojlantirish bilan birga uni kommunistik mafkura asosida shakllantirishga intildi. Savodsizlikni tugatish siyosati doirasida Sherobodda 1933–1937-yillarda 2 ta kutubxona va 4 ta "qizil choyxona" tashkil etildi, 1937-yilda esa 48 nafar yosh ijodkorni birlashtirgan ijod markazi faoliyat boshladi. Shu bilan birga Boysun, Denov, Sariosiyo, Sho'rchi va Sherobod kabi markazlar sovet siyosiy nazorati ostiga olindi. Shunga qaramay, xalq og'zaki ijodi, baxshichilik an'analari, milliy musiqa va xalq tabobati mahalliy aholi orasida saqlanib qoldi. Biroq 1926-yildan boshlab Stalin davri siyosati kuchayishi natijasida ko'plab mahalliy ziyolilar qatag'on qilindi yoki surgun qilindi. 1926-yil 13-dekabrda Sherobodda Surxondaryo okrug Sovetlarining I qurultoyi o'tkazilib, unda viloyat adabiyot va san'at vakillarining faoliyati muhokama qilindi. Bu davrda vohaning ma'rifatparvar ijodkorlaridan Eshboy Pardayev faoliyat yuritib, nazm va nasrda ijod qilgan, uning "Archa", "Qish", "Bahor" kabi asarlari mashhur bo'lgan. Shu bilan birga kutubxonalar va madaniyat muassasalari tashkil etilgan bo'lsa-da, moddiy baza va malakali kadrlar yetishmasligi sababli ularning faoliyati sust kechgan. Natijada adabiyot va san'at sohasida sovet mafkurasi ustuvor bo'lib, milliy ijodkorlar faoliyati mafkuraviy nazorat ostiga olingan.⁵⁴

Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, O'zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo'mitasi direktiv hujjatlarida yozuvchi va shoirlar ijodida milliylikning kuchayishi tanqid ostiga olingan. Xususan, 1939-yil 12-iyunda bo'lib o'tgan O'zbekiston Kompartiyasi MK Plenumida yozuvchilar uyushmasi faoliyati muhokama qilinib, badiiy asarlarda milliy madaniyat va tarixni ideallashtirish

⁵⁴ Шеробод туман давлат архиви, С 42-фонд, 1-рўйхат, 367-иш, 145-варак.

holatlari keskin tanqid qilingan. Natijada adabiyot va san'at muassasalari hukmron partiyaning mafkuraviy siyosatini targ'ib qiluvchi vosita sifatida faoliyat yuritishga majbur etilgan.⁵⁵

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillarda adabiyot va san'atda milliy kamsitish siyosati va uning oqibatlarini”** deb nomlanadi. Unda urush yillarida madaniyat va san'atning jamiyat hayotidagi o'rni, sovet kishilarining turmushida insonparvarlik g'oyalarini mustahkamlashdagi roli tahlil qilinadi. Shuningdek, fashizm tomonidan millionlab insonlarning milliy va irqiy belgilariga ko'ra qirib tashlangani, xalqlarning madaniy merosini yo'q qilishga qaratilgan siyosat olib borilgani ko'rsatib beriladi. Shu jarayonda adabiyot va san'at insonparvarlik, vatanparvarlik hamda xalq birdamligini mustahkamlashga xizmat qilgan muhim ma'naviy omil sifatida namoyon bo'lgani yoritiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bob birinchi paragrafi *“Sovet mafkurasi ta'siridagi adabiyot ahlining ijodiy faoliyati”* deb nomlanib, urush yillarida madaniyat va adabiyot jamiyatda insonparvarlik, vatanparvarlik hamda g'alabaga ishonch tuyg'ularini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etishi hamda O'zbekiston ijodkorlari — shoir va yozuvchilar — o'z asarlarida xalqning jangovar ruhini ko'tarish va fashizmga qarshi kurash g'oyalarini targ'ib qildilar. Hamid Olimjon, G'afur G'ulom, Abdulla Qahhor, Oybek, Oydin kabi adiblarning publitsistik va badiiy asarlari bu jarayonda muhim o'rin tutdi. Urush davrida poeziya ayniqsa rivojlanib, unda o'zbek jangchilarining jasorati, xalqlar do'stligi hamda front ortidagi mehnat madh etildi. Hamid Olimjonning vatanparvarlik ruhidagi she'rlari hamda G'afur G'ulomning *“Sen yetim emassan”* asari davr ruhini ifodalagan muhim adabiy namunalar hisoblanadi. Abdulla Qahhorning *“Oltin yulduz”* povesti esa front voqealarini badiiy tasvirlash orqali o'quvchilarda g'alabaga ishonch tuyg'usini mustahkamladi. Ushbu adabiy jarayonlar O'zbekistonning boshqa hududlari qatori Surxondaryo viloyatida ham o'ziga xos tarzda namoyon bo'ldi.

Xususan, Surxondaryo viloyati qadimdan baxshichilik va dostonchilik an'analari rivojlangan hududlardan biri sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Boysun, Jarqo'rg'on va Sherobod tumanlarida shakllangan dostonchilik maktablari sovet mafkuraviy siyosati bosimi kuchaygan sharoitda ham o'z faoliyatini davom ettirdi. Ayrim baxshilar yangi siyosiy sharoitga moslashib, sovet tuzumini madh etuvchi dostonlar yaratish orqali milliy og'zaki ijod an'analarini saqlab qolishga intildilar. Jumladan, Sherobod dostonchilik maktabi vakillari Umir baxshi Safarov hamda Xolyor baxshi Abdukarim o'g'li tomonidan yaratilgan dostonlar mazkur jarayonning mahsuli sifatida e'tirof etiladi.⁵⁶ Biroq sovet mafkuraviy siyosati ta'sirida xalq dostonlaridagi diniy-epik obrazlar, xususan pirlar, avliyolar va epik homiylar bilan bog'liq unsurlar ijro amaliyotidan chiqarib tashlanganligi kuzatiladi.

⁵⁵ Қораханов М. Совет Ўзбекистон маданияти. – Тошкент: Ўздавнашр, 1951. – Б. 42.

⁵⁶ Муродов М., Эргашев А. Алпомишнома. Иккинчи китоб. – Қашқадарё талқини, – Б. 160–166.

Shu bilan birga, Surxondaryo vohasi XX asr davomida ko‘plab shoir va yozuvchilar yetishib chiqqan muhim adabiy muhit sifatida ham namoyon bo‘ldi. Ra‘no Uzoqova, Tesha Saydaliyev, Shukur Xolmirzayev, Mengziyo Safarov, Bolta Yoriyev kabi ijodkorlar o‘z asarlarida urush davri voqealari, vatanparvarlik g‘oyalari hamda xalqning mardligi va matonatini badiiy jihatdan yoritdilar. Xususan, Ra‘no Uzoqovaning “Mardona yuring” she‘riy to‘plamida Ikkinchi jahon urushi davrida xalqning ruhiy holati, front va front orti hayotidagi kechinmalar hamda vatan himoyasi g‘oyalari badiiy ifoda topgan⁵⁷. Surxondaryo vohasi ijodkorlari asarlarida voha tabiati, mahalliy aholi turmush tarzi, milliy qadriyatlar hamda tarixiy jarayonlar badiiy talqin etilgan. Jumladan, Shukur Xolmirzayev o‘zining hikoya va romanlarida voha hayoti, inson ruhiyati hamda jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni chuqur badiiy tahlil qilgan bo‘lsa, Tesha Saydaliyev she‘riyatida insonparvarlik, vatanparvarlik va mehnatsevarlik g‘oyalari yetakchi o‘rin egallaydi. Umuman olganda, urush va undan keyingi yillarda Surxondaryo vohasida adabiy jarayonlar faollashib, sovet mafkuraviy bosimiga qaramay, milliy ruh, tarixiy xotira hamda xalq turmushini aks ettiruvchi badiiy asarlar yaratilganligi kuzatiladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bob ikkinchi paragrafi “*Surxon vohasida rassomchilik san‘atiga kommunistik mafkura siyosatining ta‘siri: natijalar va tahlillar*” deb nomlanib, mazkur paragrafda sovet davrida kommunistik mafkura siyosatining tasviriy san‘at, xususan rassomchilik san‘atiga ko‘rsatgan ta‘siri hamda uning Surxon vohasidagi namoyon bo‘lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Sovet davrida san‘at jamiyat hayotining muhim mafkuraviy vositalaridan biri sifatida qaralib, u kommunistik g‘oyalarni targ‘ib qilishga yo‘naltirildi. Bu jarayonda san‘at vakillaridan ijtimoiy hayotni proletar mafkurasi nuqtai nazaridan aks ettirish talab qilindi. Sovet hokimiyati yillarida O‘zbekistonda tasviriy san‘at sohasiga mafkuraviy siyosat asosida yondashilib, rus va Yevropa san‘at an‘analari mahalliy madaniy muhitga keng joriy etildi. Natijada teatr, opera, balet, kino, haykaltaroshlik va rassomchilik kabi san‘at yo‘nalishlari rivojlanib, ular orqali sovet mafkurasi targ‘ib qilindi. Rassomlar ijodi qat‘iy nazorat ostida bo‘lib, ulardan asosan ishchi va dehqonlarning mehnati, jamiyatdagi ijtimoiy o‘zgarishlar hamda sovet tuzumining “yutuqlari”ni aks ettirish talab etildi. Respublika miqyosida P. Benkov, V. Ufimsev, M. Novikov kabi rassomlar faoliyat olib borgan bo‘lsa, keyinchalik O‘. Tansiqboyev, L. Abdullayev, Ch. Ahmarov kabi mahalliy rassomlar ijodi shakllandi. Ularning asarlarida davrning mafkuraviy talablari aks etgan bo‘lsa-da, ayrim ijod namunalarda milliy ruh va mahalliy hayot manzaralari ham o‘z ifodasini topdi. Xususan, O‘. Tansiqboyevning bir qator asarlarida tabiat manzaralari hamda milliy rang-baranglik elementlari namoyon bo‘ladi⁵⁸. Tadqiq etilayotgan davrda Surxondaryo viloyatida san‘at sohasining rivojlanishi, asosan, muzey va madaniy muassasalar faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ular sovet mafkurasi

⁵⁷ Нарзуллаев Н., Турдиев Т. “Раъно Узоқова Талпин, юрак”. – 1981. – Б. 8.

⁵⁸ Тиловатов Ф.У. “Совет ҳокимиятининг XX аср 20-30 йиллардаги Маданий инқилоб сийсати ва унинг Ўзбекистонда амалга оширилиши”. Автореф. Дисс. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун. – Тошкент: 2009. – Б. 143.

targ'ibotining muhim vositasiga aylandi.⁵⁹ Xususan, Termiz shahrida tashkil etilgan o'lkashunoslik muzeyi faoliyati orqali markscha-lenincha g'oyalarni targ'ib etuvchi ko'rgazmalar namoyish etildi. Shu bilan birga, san'at sohasida malakali kadrlarning yetishmasligi ham rassomchilik san'ati rivojiga ma'lum darajada to'sqinlik qilgan.

Sovet davrida rassomchilik san'ati ham kommunistik mafkura siyosati ta'siri ostida rivojlanib, san'at asarlari orqali sovet ideologiyasini targ'ib qilish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi. Bu jarayonda rassomlardan ishchi va dehqonlar hayoti, sovet jamiyatining "yutuqlari" hamda vatanparvarlik g'oyalarini aks ettiruvchi asarlar yaratish talab qilindi. Surxondaryo viloyatida ham tasviriy san'atni rivojlantirish maqsadida muzeylar, klublar va madaniy muassasalar faoliyati yo'lga qo'yildi. 1961-yilda respublika miqyosida qabul qilingan qaror asosida viloyatda rassomchilik san'ati muassasalarini rivojlantirish bo'yicha maxsus rejalar ishlab chiqildi hamda kolxoz va jamoa xo'jaliklarida madaniy-ma'rifiy markazlar tashkil etish ishlari olib borildi. Biroq moddiy ta'minotning yetarli emasligi, malakali mutaxassislarining kamligi va qurilish ishlari bilan bog'liq muammolar sababli ayrim loyihalar to'liq amalga oshmadi. Shunga qaramay, Surxon vohasida tasviriy san'at muhitining shakllanishida mahalliy rassomlarning ijodi muhim rol o'ynadi. Xususan, Ro'zi Choriyev — Surxon vohasining mashhur rangtasvir ustalaridan biri bo'lib, uning asarlarida voha tabiati, xalq turmushi hamda zamondoshlar qiyofasi yorqin badiiy ifoda etilgan. Rassom portret va manzara janrlarida milliy ruh va realizm unsurlarini uyg'unlashtirgan holda o'zbek tasviriy san'atining rivojiga muhim hissa qo'shgan, To'ra Shomirzayev — Surxon vohasining iste'dodli rassomlaridan biri bo'lib, uning ijodida Boysun tabiati, xalq turmushi va milliy qadriyatlar badiiy aks ettiriladi. Rassomning asarlarida rang-barang tabiat manzaralari va voha hayotining o'ziga xos jihatlari yorqin tasvirlangan⁶⁰, Xolboy Hasanov - rassom va pedagog sifatida tasviriy san'atni rivojlantirish hamda yosh avlodni badiiy tarbiyalashga katta hissa qo'shgan ijodkor hisoblanadi.⁶¹ Uning asarlarida Surxon vohasining tabiat manzaralari va tarixiy maskanlari tasviriy san'at vositalari orqali ifodalangan, Azamat Hatamov — haykaltaroshlik san'atining yirik namoyandalaridan biri bo'lib, uning ijodida tarixiy shaxslar, milliy qahramonlar hamda zamonaviy jamiyat hayoti obrazlari badiiy ifoda etilgan.⁶² Rassom asarlarida milliy ruh va falsafiy mazmun uyg'unligi kuzatiladi, Chorshanbi Mamatqulov — tasviriy san'at va haykaltaroshlik sohasida samarali ijod qilgan rassom bo'lib, uning asarlarida vatanparvarlik, tarixiy xotira hamda xalq hayoti bilan bog'liq obrazlar aks ettirilgan, Qudrat Asrorov — xalq amaliy san'ati namoyandasi sifatida kulolchilik va tasviriy san'at sohasida samarali ijod qilgan. Uning asarlarida milliy an'analar, xalq hunarmandchiligi va tarixiy obrazlar badiiy talqin etilgan, Nodir Normatov —

⁵⁹ Фойибов Н. Санъат тараққиётининг баъзи масалари. —Тошкент: Фан, 1970. — Б.34.

⁶⁰ Чориев Р. Сурхонда бир мактаб бор. — Тошкент: Санъат нашриёти, 2009. — Б. 16.

⁶¹ Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 2010 йил 29 август №44. —Б.49.

⁶² Худойкулов Х. Ҳаёт завқи (Очерк, қисса ва ҳикоялар). — Тошкент: Тафаккур нашриёти, 2014. — Б. 6.

san'atshunos va fotorassom sifatida tasviriy san'atni targ'ib qilish, musavvirlar ijodini o'rganish hamda badiiy fotografiya orqali milliy madaniyatni yoritishga katta hissa qo'shgan ijodkor hisoblanadi.⁶³

Umuman olganda, sovet mafkuraviy siyosati sharoitida rassomchilik san'ati qat'iy nazorat ostida rivojlangan bo'lsa-da, Surxon vohasida faoliyat yuritgan rassomlar ijodida milliy ruh, tarixiy xotira hamda mahalliy hayot manzaralarini aks ettirishga intilish kuzatiladi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“Turg'unlik va qayta qurish yillarida adabiyot va san'atdagi ijodiy ishlar va ularni tarixiy tahlili”** deb nomlanib, ushbu bobda Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi va uning Markaziy Komiteti tomonidan fan, adabiyot hamda san'at arboblari orasida olib borilgan mafkuraviy ishlar tahlil qilinadi. Jumladan, markscha-lenincha ideologiyani mohiyatini targ'ib etish, uni milliy hududlarda keng yoyish hamda mahalliy xalqlarni o'z milliy adabiyoti va san'at an'analaridan voz kechishga undashga qaratilgan siyosatning amalga oshirilishi yoritib beriladi. Shuningdek, ushbu vazifalarni bajarish kechiktirib bo'lmaydigan muhim siyosiy vazifa sifatida belgilanganligi ham ochib beriladi. Partiya sovet madaniyatini rivojlantirish va uni “gullab-yashnashi”ning asosiy sharti sifatida san'at va madaniyatni jamiyat hayoti bilan chambarchas bog'lash, uni xalq manfaatlari hamda kommunizm qurilishi g'oyalari xizmat qildirish zarurligini ta'kidlaganligi ham ilmiy asosda tahlil qilinadi.

Dissertatsiyaning uchinchi bob birinchi paragrafi *“Sovet davri turg'unlik va inqirozi davrida adabiy ijod ahli”* deb nomlanib, Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi va uning Markaziy Komiteti fan, adabiyot hamda san'at arboblari orasida markscha-lenincha mafkurani targ'ib qilishga alohida e'tibor qaratildi. Bu jarayonda sovet kishisini ulug'lovchi, “tenglik” g'oyalari aks ettiruvchi badiiy asarlar yaratish rag'batlantirildi. RSFSR Yozuvchilar uyushmasi boshqaruvining 1978-yil 20-dekabr kuni Moskvada bo'lib o'tgan kengaytirilgan plenumida Rossiya adiblarining keyingi vazifalari belgilab berildi. Unda Rossiya Federatsiyasidagi 75 ta yozuvchilar tashkiloti vakillari, madaniyat va fan arboblari, partiya hamda jamoat tashkilotlari namoyandalari ishtirok etdilar. Plenum kun tartibida KPSS XXV syezdi qarorlari asosida sovet adabiyotini hayot bilan bog'lash masalasi ko'rib chiqildi hamda kommunistik g'oyalarni aks ettiruvchi asarlarni “qardosh xalqlarga o'rnak sifatida” targ'ib qilish orqali rus adabiyotini butun ittifoq miqyosida keng yoyish vazifasi qo'yildi.

Mazkur bobda sovet davrining turg'unlik va inqiroz yillarida adabiy jarayonning mafkuraviy ta'sir ostida rivojlanishi hamda Surxondaryo vohasida faoliyat yuritgan ijodkorlarning adabiy merosi tahlil qilinadi. Sovet Ittifoqi Kommunistik partiyasi va uning Markaziy Komiteti tomonidan adabiyot va san'at sohalariga markscha-lenincha mafkurani targ'ib etish vazifasi yuklatilib, badiiy asarlar orqali sovet jamiyatining ideologik qarashlarini targ'ib qilish talab etilgan.

⁶³ Норматов Н. “Мушоира”нинг сирли ёғдулари. Ўзбекистон адабиёти ва санъати ҳафталиги. – 2010. – 13 август. – Б. 8.

Shu bilan birga, mazkur davrda Surxondaryo vohasida ham adabiy muhit shakllanib, ko‘plab shoir va yozuvchilar ijodiy faoliyat olib bordilar. Viloyat hokimligi qarori asosida 1993-yilda shoir Ra‘no Uzoqovanning 75 yilligi hamda shoir Tesha Saydaliyevning 60 yilligi keng nishonlanib, ularning asarlari qayta nashr etildi. 2000-yillarga kelib Surxondaryoda yashab ijod qilgan O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zolari soni o‘n uch nafarga yetdi.⁶⁴ Ular orasida Nizomjon Parda, Bolta Yoriyev, Shafoat Rahmatullo Termiziy, Narzulla So‘fiyev kabi shoirlar hamda Ismat Norboyev, Chorshanba Boybo‘sinov, Tohir Usmonov kabi yozuvchilar faol ijod qilganlar. Surxon vohasida yetishib chiqqan yirik adiblardan biri Tog‘ay Murod bo‘lib, uning “Yulduzlar mangu yonadi”, “Ot kishnagan oqshom”, “Oydinda yurgan odamlar” kabi qissalari o‘zbek nasrida milliy ruh va qishloq hayotini badiiy talqin etish bilan ajralib turadi. Ayniqsa, “Otamdan qolgan dalalar” romani orqali sovet tuzumining inson ruhiyatiga ko‘rsatgan ta’siri va tarixiy haqiqat oddiy qishloq odamlari taqdiri orqali yoritilgan.⁶⁵ Shuningdek, voha adabiy muhitida Usmon Azim, Erkin A‘zam, Mirzo Kenjabek kabi ijodkorlarning asarlari ham alohida o‘rin tutadi. Usmon Azim she‘riyatida falsafiy tafakkur, tarixiy xotira va milliy ruh aks etgan bo‘lsa, Erkin A‘zam nasrida zamonaviy jamiyat muammolari badiiy talqin etilgan. Mirzo Kenjabek ijodida esa diniy-ma‘rifiy va tasavvufiy g‘oyalar bilan boyitilgan tarixiy-adabiy qarashlar o‘z ifodasini topgan.⁶⁶

Surxondaryo adabiy muhitida jurnalist va adabiyotshunos olimlar ham muhim o‘rin tutadi. Masalan, Nurmuhammad Xolliyev o‘zbek adabiyotidagi obrazlar tipologiyasi masalalarini o‘rganib, bir qator ilmiy tadqiqotlar yaratgan.⁶⁷ Qayum Mamashukurov esa xalq og‘zaki ijodiyoti, xususan “Nurali” turkum dostonlarini ilmiy tahlil qilgan folklorshunos olim sifatida tanilgan.⁶⁸ Mazkur davr adabiy jarayonida voha ijodkorlari orasida badiiy nasr, she‘riyat, dramaturgiya va publitsistika sohalarida faol ijod qilgan ko‘plab shaxslar yetishib chiqdi. Jamila Ergasheva hikoyalari voha ayollari hayoti va insoniy munosabatlar tasvirlangan bo‘lsa, Bobo Rustam g‘azallari orqali mumtoz an‘analarni davom ettirdi. Shuningdek, Xudoyberdi Eshonqulov, Ro‘ziqul Mustafiqulov, Ismatulla Halimov kabi ijodkorlar ham voha adabiy muhitining rivojlanishiga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Umuman olganda, sovet davrining mafkuraviy cheklovlariga qaramay, Surxondaryo vohasida shakllangan adabiy muhit milliy adabiyot rivojiga muhim hissa qo‘shdi. Mazkur davr ijodkorlari asarlarida xalq hayoti, tarixiy xotira, milliy qadriyatlar hamda zamonaviy ijtimoiy muammolar badiiy talqin etilgan.

Dissertatsiyaning uchinchi bob ikkinchi paragrafi “*Vohada san‘at sohasidagi madaniy muassasalar va milliy hunarmandchilikning o‘ziga xos xususiyatlari*” deb nomlanib, ushbu bobda Surxondaryo vohasida sovet davrida san‘at va madaniyat muassasalarining shakllanishi hamda ularning faoliyati tahlil qilinadi.

⁶⁴ Мустофакулов Р. Сурхон адиблари – болаларга. – Тошкент: Ёзувчи нашриёти, 2000. – Б.153.

⁶⁵ Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар. — Тошкент: Шарқ, 1993. –Б.5.

⁶⁶ Мирзо Кенжабек. Ёшларга дил сўзларим. – Тошкент: Адабиёт, 2022. – Б. 205.

⁶⁷ Сурхондарё вилоят давлат архиви, 89-фонд, 1-рўйхат, 13-иш, 32-варақ.

⁶⁸ Қодиров Б. Сурхондарё олимлари. – Тошкент: Мехнат, 1990. – Б.142.

Kommunistik partiya o'z mafkurasini targ'ib qilishda sovet adabiyoti, musiqa, tasviriy san'at, kinematografiya, teatr va televideniye kabi san'at turlaridan keng foydalangan. Ayniqsa, milliy hududlarda paydo bo'layotgan milliy o'zlikni tiklash g'oyalarini jilovlash maqsadida mahalliy adabiyot va san'at namoyandalariga nisbatan turli mafkuraviy bosim va nazorat mexanizmlari qo'llanilgan. KPSS dasturida ommaviy badiiy havaskorlik bilan professional san'atni uyg'unlashtirish orqali jamiyatning badiiy merosini boyitish, shu bilan birga rus va rusiyzabon adabiyot namoyandalarining asarlarini mahalliy aholiga keng targ'ib qilish orqali milliy adabiyot vakillarining ijodiy faoliyatini cheklash siyosati olib borilgan. Sovet davrida O'zbekiston, jumladan Surxondaryo viloyatiga ittifoq budjetidan ajratiladigan ijtimoiy mablag'lar yetarli darajada bo'lmagan. Ayniqsa qishloq hududlarida madaniyat va san'at muassasalari bilan ta'minlanish darajasi past bo'lgan. Hududlarda tashkil etilgan "qizil choyxona", "dehqonlar uyi" kabi targ'ibot muassasalari esa ko'proq aholi ongiga sovet mafkurasini singdirish, yangi tuzumga sodiqlikni shakllantirish vazifasini bajargan.

Sovet davrida O'zbek milliy madaniy hayotida muhim voqealardan biri teatr san'atining rivojlanishi bo'ldi. Surxondaryo vohasida teatr san'atining shakllanishi 1930-yillarga to'g'ri keladi. 1935-yil 5-noyabrda Termiz shahrida musiqali drama teatri o'z faoliyatini boshladi. Teatrning ochilish marosimida Afandixon Ismoilovning "G'olibiyat" asari sahnalashtirildi. Keyingi yillarda K.Yashinning "Ikki kommunist", "Gulsara", Hamzaning "Maysaraning ishi", N.Safarovning "Uyg'onish", U.Gadjibekovning "Arshin mol-olmon" kabi sahna asarlari repertuardan o'rin oldi. Teatr faoliyatining rivojlanishida O.Rixsiyev, X.To'laganov, X.Boboxonova, G.Latipova, Z.Olimova kabi san'atkorlarning xizmatlari katta bo'ldi. 1925-yilda O'zbekiston hukumatining Termiz shahri va viloyat hududlarida klublar, choyxonalar hamda madaniy-ma'rifiy muassasalar tashkil etish haqidagi qarori Surxondaryoda madaniyat muassasalari tarmog'ining kengayishiga zamin yaratdi. Shundan so'ng viloyatda kutubxonalar, klublar va boshqa madaniy markazlar tashkil etila boshladi. Termizning chegara hududi bo'lgani sababli bu yerga kirish ma'lum cheklovlar asosida amalga oshirilgan. Shu sababli 1933-yilda Jarqo'rg'on tumanida viloyat miqyosidagi kolxoz-sovxozi teatri tashkil etildi. Ushbu teatr xalq orasidan chiqqan havaskor san'atkorlar asosida faoliyat boshladi. Teatr repertuariga dastlab kichik sahna ko'rinishlari, qo'shiqlar va raqslar kiritilgan. Jarqo'rg'on teatrining shakllanishida Qori aka Madaminov muhim rol o'ynadi. U viloyatning turli hududlarini kezib, san'atga qiziqqan yoshlarni jalb qildi. Teatrning ilk aktyorlari orasida Hafiz Yo'ldoshev, Surmaxon Yo'ldosheva, Nurmat Azizov, Oliya Olimova, Odina Qodirova kabi iste'dodli yoshlar bo'lgan. 1935-yil sentyabr oyida O'zbekiston hukumati "Surxondaryo okrug teatri tashkil etish" to'g'risida qaror qabul qildi. Jarqo'rg'on kolxoz-sovxozi teatri ushbu teatrga asos bo'lib xizmat qildi. Teatr jamoasiga Qayum To'laganov, Xurshid Azimov, Muhammad Shermuhammadov, Omina Fayozova, Kifoyat Muslimova, Manzura Hamidova kabi yosh aktyorlar qo'shildi.

1935-yil 5-noyabrda Surxondaryo okrug teatri Afandixon Ismoilovning “G‘olibiyat” asari bilan o‘z faoliyatini boshladi. Rahimberdi Bobojonov teatr direktori, Afandixon Ismoilov bosh rejissyor etib tayinlandi. Teatrning bosh rassomi vazifasini N.T.Maleshevskiy bajardi. Urush yillariga qadar teatr sahnasida G.Zafariyning “Halima”, U.Ismoilovning “Rustam”, K.Yashinning “Gulsara”, Xurshidning “Layli va Majnun” kabi sahna asarlari namoyish etildi. 1938-yilda O‘zbekiston KP Markaziy Komitetining teatr san‘atini rivojlantirish to‘g‘risidagi qarori qabul qilindi. Mazkur qarorga muvofiq teatr jamoalari sovet tuzumini ulug‘lovchi sahna asarlarini ko‘paytirishga majbur qilindi. Natijada milliy tarixiy mavzudagi asarlar “eskilik sarqiti” sifatida baholanib, sahnalashtirilishi cheklab qo‘yildi. 1940-yillarga kelib Surxondaryo viloyatida Termiz va Denov xalq teatrlari faoliyat ko‘rsatib, ularda o‘nlab san‘atkorlar xizmat qilgan. 1970-yilda V.I.Lenin tavalludining 100 yilligiga bag‘ishlab viloyatda badiiy havaskorlik jamoalarining anjumani o‘tkazildi. Unda kolxoz badiiy jamoalari sovet mafkurasini targ‘ib qiluvchi qo‘shiqlar, sahna ko‘rinishlari va she‘rlar bilan qatnashdilar.

Surxondaryo viloyati aholisining madaniy hayotida Mannon Uyg‘ur nomidagi musiqali drama teatrining alohida o‘rni mavjud. Urushdan keyingi iqtisodiy qiyinchiliklar teatr faoliyatiga ma‘lum darajada salbiy ta‘sir ko‘rsatgan bo‘lsa-da, teatr jamoasi ijodiy faoliyatini davom ettirib, bir qator sahna asarlarini yaratishga muvaffaq bo‘ldi. Jumladan, K.Yashinning “Gulsara”, H.G‘ulomning “Ota rozi”, Tuyg‘unning “Muhabbat”, A.Surovning “Staligraddan uzoqda”, J.B.Molyerning “Skapening nayranglari” pyesalari sahnalashtirildi. XX asrning 30-yillaridan boshlab Surxondaryo viloyatida kinoteatrlar qurilishi ham yo‘lga qo‘yildi. Keng ekranli kinoteatrlar Denov, Termiz, Sherobod, Sho‘rchi va Jarqo‘rg‘on tumanlarida barpo etildi. Termiz shahrida kinoseanslar asosan zobitlar uyida hamda M.Gorkiy nomidagi istirohat bog‘ida tashkil etilgan. Ushbu bog‘ hududida maxsus yozgi kinoteatr ham qurilgan. Shunga qaramay, viloyatda kino xizmatlari ko‘rsatish darajasi yetarli emas edi. Masalan, 1940-yilda Surxondaryoda 25 ta kino qurilma mavjud bo‘lgan bo‘lsa, Xorazmda 28 ta, Qoraqalpog‘istonda 33 ta, Sirdaryoda esa 45 ta kino qurilma faoliyat ko‘rsatgan. Shu asosda sahna yuzini ko‘rgan asarlar qatoriga Sh.Pardayevning “Osmonsiz uy”, N.Pardaning “Adib Sobir Termiziy”, M.Boboyevning “O‘chmasin chiroq”, M.Qodirovning “Sehrli uzuk”, Q.Abdunabiyevning “Amir Temur va Yildirim Boyazid”, J.Mahmudning “Toshmat tajang uylanarmish”, X.Rasulning “Farishta”, U.Azimning “Alpomish”, X.Xursandovning “O‘lding aziz bo‘lding”, M.Boboyevning “O‘lim halqasi” kabi asarlarni kiritish mumkin.

Shuningdek, X.Xursandovning “Kampir topaymi dadajon?”, “Qaysar chol”, “Juft-juft laylaklar”, “Alla”, Sh.Pardayevning “Afandizoda”, U.Azimning “Tug‘ilgan kun”, E.Norsafarning “Tashna qalb”, Sh.Rizayevning “Ona”, R.Orifjonovning “Uyqusiz tunlar” kabi sahna asarlari ham teatr repertuaridan o‘rin oldi. Mazkur davrda teatr jamoasining badiiy saviyasi ham oshib, ijodkorlar dolzarb ijtimoiy mavzularga murojaat qildilar. Teatr jamoasi o‘zining samarali

ijodiy faoliyati natijasida turli mukofot va e'tiroflarga sazovor bo'ldi. 2015-yilda teatr jamoasi o'z faoliyatining 80 yillik yubileyini keng nishonladi.

Umuman olganda, Surxondaryo vohasida san'at va hunarmandchilik turlari tarixiy an'analar asosida shakllanib, sovet davrining mafkuraviy bosimlariga qaramay, milliy madaniyat rivojida muhim o'rin tutdi. Ayniqsa mustaqillik yillarida milliy san'at va hunarmandchilik sohalari yangi bosqichga ko'tarilib, ularning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratildi.

XULOSA

Mavzuni ilmiy tahlil etish jarayonida quyidagi *xulosalarga* kelindi.

O'zbekistonda adabiyot va san'at tarixi (Surxondaryo viloyati misolida, 1920–1990-yillar)ni o'rganish asosida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Tadqiqot natijasida sovet hokimiyatining dastlabki yillarida milliy adabiyot va san'atga nisbatan olib borilgan siyosatning mohiyati va mazmuni tarixiy manbalar asosida ochib berildi. Mazkur siyosat milliy madaniyatni sovet mafkurasi talablariga moslashtirish, uni nazorat qilish va yangi sotsialistik madaniyatni shakllantirishga qaratilganligi aniqlandi.

2. Sovet hokimiyatining dastlabki davrida Surxon vohasida adabiyot va san'at sohasiga nisbatan yuritilgan siyosatning asosiy maqsadi jamiyatda kommunistik mafkurani mustahkamlash, madaniyat va san'atni ideologik tarbiya vositasiga aylantirishdan iborat bo'lganligi ilmiy jihatdan asoslandi.

3. Tadqiqot davomida sovet mafkurasi ta'siri ostida faoliyat yuritgan adabiyot va san'at vakillarining ijodiy faoliyati tahlil qilinib, ularning asarlarida milliy urf-odatlar, an'analar va diniy qadriyatlarning ayrim hollarda yashirin yoki ramziy shaklda aks etgani Surxon vohasi misolida ko'rsatib berildi.

4. Surxon vohasida rassomchilik san'atiga kommunistik mafkuraning ta'siri tarixiy materiallar asosida o'rganilib, milliy san'atning erkin rivojlanishi cheklangani hamda "shaklan milliy, mazmunan sotsialistik" madaniyat siyosati orqali san'atning ideologik yo'nalishga bo'ysundirilgani ilmiy jihatdan asoslab berildi.

5. Sovet hokimiyati siyosati ta'sirida adabiyot va san'at muassasalari faoliyatining konseptual va metodologik jihatdan cheklanganligi, ularning faoliyati asosan sovet mafkurasi talablari asosida yo'lga qo'yilganligi tarixiy tahlillar asosida aniqlandi.

6. Tadqiqot natijalariga ko'ra, Surxon vohasida san'at sohasidagi milliy hunarmandchilik o'zining an'anaviy xususiyatlarini ma'lum darajada saqlab qolgan bo'lsa-da, sovet davrida uning faoliyati davlat siyosati va madaniy siyosat doirasida shakllantirilgani hamda adabiyot va san'at muassasalari faoliyati bilan o'zaro bog'liq holda rivojlanganligi ilmiy jihatdan asoslab berildi.

Yuqoridagi xulosalardan kelib chiqib, quyidagilarni *tavsiya* etish mumkin:

sovet davrida ijod qilgan kommunistik mafkura tazyiqi asosida maxsus unutilgan voqa mahalliy adabiyot va san'at ahli hayoti va ijodini arxiv hujjatlar asosida tiklash va ularni matbuot orqali targ'ib etish;

milliy urf-odat va qadriyatlarni o'zida aks ettirgan ijodkorlarning asarlarni xalqimiz orasida saqlanib qolgan qo'lyozma manbalarni topish, tiklash, ular asosida hujjatli video-filmlar yaratish hamda arxiv fondlariga taqdim etish;

o'zbek milliy san'atini rivojlanishi va yuksalishiga xizmat qilgan vohaga oid adabiyot va rassomchilik san'atining mualliflarining uch avlodiga xos tarixiy-badiiy uchrashuvlar tashkil etish, ilmiy anjumanlar tashkil etish hamda monografiyalar, risolalar yaratish;

o'zbek adabiyoti va san'atiga munosib o'rin tutgan vohamiz namoyondalari hayoti va ijodi hamda ular tomonidan yaratilgan asarlar asosida video-hujjatli, teatrlashgan hamda badiiy filmlar yaratish.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТЕРМЕЗСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ТЕРМЕЗСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

ЧОРИЕВ САНЖАР ХАМЗАЕВИЧ

**ИСТОРИЯ ЛИТЕРАТУРЫ И ИСКУССТВА В УЗБЕКИСТАНЕ
(на примере Сурхандарьинской области, 1920–1990 годы)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по историческим наукам**

Термез – 2026

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2022.4.PhD/Tar1254 в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан.

Диссертация доктора философии (PhD) выполнена в Термезском государственном университете.

Автореферат диссертации выполнен на трех языках (узбекский, английский, русский) размещён на веб-странице Научного совета (www.termsu.uz) и на информационно — образовательном портале “ZiyoNET” (www.ziyo.net).

Научный руководитель:

Сайпулла Нарзуллаевич Турсунов
доктор исторических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Кобулов Эшболта Атамуродович
доктор исторических наук (DSc), профессор

Тураева Матлуба Холикуловна
доктор исторических наук (DSc), профессор

Ведущая организация:

Андижанский государственный педагогический институт

Защита диссертации состоится « 23 » май 2026 года в 10.00 часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Tar.12.01 по присуждению ученых степеней при Термезском государственном университете. (Адрес: 190111, город Термез, улица Баркамол авлод, 43. Тел.: (376) 221-71-17; e-mail: termizdu@umail.uz).

С диссертацией можно ознакомиться в библиотеке Термезского государственного университета (зарегистрирована под номером № 395).

Автореферат диссертации разослан « 12 » май 2026 года
(Протокол реестра рассылки № 17 от « 12 » май 2026 года).



Т.Р.Пардаев

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), профессор

О.А.Хамидов

Секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор философии (PhD) по историческим наукам, доцент

Х.Э.Холмунинов

Председатель Научного семинара при Научном Совете по присуждению ученых степеней, доктор исторических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировом масштабе литература и искусство, сопоставляя духовное возвышение человека с жизненными переживаниями, на протяжении всей истории вносили значительный вклад в формирование и развитие интеллектуальных способностей личности, а также в утверждение таких ценностей, как гуманизм, добродетель и созидательность, выступающих основой национальных идей⁶⁹. Вместе с тем политические системы, оказывавшие влияние на развитие литературы и искусства, формировали новые механизмы управления, что нередко сопровождалось идеологическим давлением. Это обстоятельство создаёт возможность для научно-объективного и исторически взвешенного анализа данных процессов на основе конкретных исторических фактов.

В научно-исследовательских центрах развитых стран мира уделяется особое внимание изучению литературы и искусства, воплощающих материальное и духовное наследие народов. В данном процессе научному анализу подвергаются формирование литературно-художественной среды, закономерности развития национального искусства, а также их роль в духовной жизни общества; реализуются различные научные проекты и исследовательские программы. В целях недопущения вытеснения ценностей, сформировавшихся на протяжении многих лет, разрушительными идеями особую актуальность приобретает научно-историческое изучение художественных и художественно-эстетических произведений⁷⁰. В Новом Узбекистане особое внимание уделяется объективному анализу истории литературы и искусства на примере Сурхандарьинского оазиса, а также критическому освещению ограниченности литературно-художественной среды и национальных ценностей в условиях административно-командной системы. Начавшееся в годы независимости духовно-нравственное обновление, основанное на восстановлении исторической памяти узбекского народа, обуславливает необходимость научного анализа на основе исторических источников деятельности местных творческих деятелей, их взглядов, убеждений и творчества. Несмотря на то, что в период советской идеологии сфера литературы и искусства была приспособлена к интересам центра, а проявления национального самосознания подвергались политическому давлению, изучение творчества местной интеллигенции приобретает особую научную значимость.

Настоящая диссертация в определённой степени способствует реализации задач, определённых в нормативно-правовых документах, в частности в постановлении Президента Республики Узбекистан от 30 июня

⁶⁹ Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир. – Тошкент: Тасвир, 2021. – Б. 36.

⁷⁰ Мирзиёев Ш. Инсонпарварлик, эзгулик ва бунёдкорлик-миллий ғоямизнинг пойдеворидир. – Тошкент: Тасвир, 2021. – Б. 273.

2017 года «Об организации деятельности Общественного совета по новейшей истории Узбекистана при Академии наук Республики Узбекистан», Указе Президента Республики Узбекистан от 8 сентября 2017 года «Об утверждении Концепции административной реформы в Республике Узбекистан», Указе Президента Республики Узбекистан от 12 марта 2021 года № ПФ-6190 «Об утверждении Концепции развития сферы культуры и искусства Республики Узбекистан до 2030 года», а также в постановлении от 17 августа 2023 года № ПК-302 «О дополнительных мерах по развитию сферы литературы и искусства», и других нормативно-правовых актах, регулирующих данную сферу.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением программы развития науки и технологий Республики Узбекистан «Социальное, правовое, экономическое, культурное и духовно-просветительское развитие информационного общества и демократического государства, формирование системы инновационных идей и пути их реализации».

Степень изученности проблемы. По историографии выбранной темы проведён анализ научных исследований, которые в зависимости от периода, территории и научного подхода условно можно разделить на две группы:

1. исследования советского периода;
2. исследования, выполненные в Узбекистане в годы независимости.

Выбор хронологических рамок исследования (1920–1990 годы) обусловлен тем, что именно в этот период на территории Сурхандарьинского оазиса происходил процесс установления советской власти, сопровождавшийся началом борьбы коммунистической идеологии против национальной литературы и искусства. Вместе с тем в конце 1990-х годов на фоне кризиса советского государства национальная литература и искусство проявили себя как значительная общественно-политическая сила, способствовавшая процессу обретения независимости. Указанные исторические события получили в исследовании объективное освещение.

К первой группе относятся труды, брошюры и исследования, опубликованные в период советского господства. Данные работы были написаны в духе коммунистической идеологии, отражали партийный и классовый подход, защищали интересы социалистического общества и излагали взгляды пролетариата и крестьянства. Особое место в них занимают идеи, служившие теоретической основой партийной политики в области литературы и искусства, направленные на реализацию программ социализма и коммунизма. В трудах руководителей КПСС, таких как В.И. Ленин⁷¹ и М.С. Горбачёв⁷², а также других идеологов советской системы, прослеживается

⁷¹ Ленин В.И. Тўла асарлар тўплами. 4-том. – Т.: Ўзбекистон, – Б. 393.

⁷² Горбачев М.С. Партиянинг хозирги шароитдаги миллий сиёсати тўғрисида. – Т.: Ўзбекистон, 1989. – Б. 47.

пропаганда единой коммунистической идеологии, нередко сопровождавшаяся элементами великодержавного русского шовинизма. В значительной части литературы, созданной представителями правящих кругов советского государства, коммунистическая идеология рассматривалась как основной критерий развития литературы и искусства. Эти положения нашли отражение в различных научных исследованиях и опубликованных работах того периода. В то же время критическое, объективное и сравнительное изучение произведений, созданных в рамках коммунистической идеологии, представляет собой важный источник информации для современных научных исследований⁷³.

В ходе исследования впервые установлено, что творчество представителей литературы и искусства из числа местной интеллигенции Сурхандарьинского оазиса находилось под строгим контролем советской идеологической политики. Несмотря на регулярные ссылки, репрессии и массовые казни, которым подвергались представители местной интеллигенции, в том числе деятели литературы и искусства, они продолжали доносить до народа через свои произведения, стихи и критические сатирические газели идеи борьбы узбекского народа за свободу, а также отражали движение национальной интеллигенции и протест против политики национализма и дискриминации, проводимой советской властью. Многие из них погибли на этом пути, став жертвами репрессивной политики⁷⁴.

Политика «культурной революции», проводившаяся советским правительством в 1920–1930-е годы XX века, а также история литературы и искусства Узбекистана получили научное освещение в трудах таких исследователей, как Ф.У. Тиловатов⁷⁵, Т.Н. Кориниёзов⁷⁶, М. Караханов⁷⁷, И. Кадыров, Х.Н. Пулатова⁷⁸, С. Шермухаммадов⁷⁹, Р.М. Султанова⁸⁰, М. Вахобов⁸¹, М. Рахмонов⁸², Н. Рахмонов⁸³ и др. В ряде их научных работ и публикаций вопросы литературы и искусства, культурных и духовных ценностей, а также взаимосвязь народа, общества, идеологии и духовных

⁷³ Х.Дониёров, С.Мирзаев, С.Шермухаммедовларнинг “Адабиёт ва санъатда Ленинча партиявийлик принциплари. – Т.: Фан. Султонова М. Ўзбек совет адаблари. – Т.: Ўздавнашр, 1963. – Б. 123.

⁷⁴ Мирзо Умар. Муножот. – Фарғона, 2001. – Б. 59. Азимов М. Сурхондарё ижодкорлари. – Қарши: Насаф, 2006. – Б. 19.

⁷⁵ Тиловатов Ф.У. Совет ҳокимиятининг XX аср 20–30 йиллардаги “маданий инкилоб” сиёсати ва унинг Ўзбекистонда амалга оширилиши: тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун дисс. автореф. – Т., 2009.

⁷⁶ Кориниёзов Т.Н. Совет Ўзбекистони маданияти тарихидан очерклар. – Т.: Қизил Ўзбекистон, 1951.

⁷⁷ Қорахонов М. Совет Ўзбекистони маданияти. – Т.: Ўздавнашр, 1951. – Б. 42.

⁷⁸ Қодиров И, Пулатов Х.П. Культурно-воспитательная деятельность Советского государства в Узбекистане. – Т.: Госиздат, 1959. – Б. 46.

⁷⁹ Мухаммедов С. Культура Советского Узбекистана. – Т.: ТашГУ, 1985. – Б. 78.

⁸⁰ Ўзбек совет адаблари. – Т.: Ўздавнашр, 1963. – Б. 25.

⁸¹ Вахобов М. Ўзбек социалистик миллати. – Т.: Ўзбекистон, 1960. – Б. 41.

⁸² Рахмонов М. Ўзбек театри. – Тошкент: Фан, 1975

⁸³ Рахмонов М. Ўзбек театри. – Т.: Фан, 1975. – Б. 63.

факторов с социальной жизнью в основном анализировались в рамках господствующей марксистской идеологии и политических взглядов⁸⁴.

В научных исследованиях, проведённых в советский период, деятельность учреждений литературы и искусства Сурхандарьинского оазиса в определённой степени была изучена. К числу таких работ можно отнести исследования, опубликованные в тот период А.О. Эшкувватовым⁸⁵, С. Шермухаммадовым⁸⁶, М. Искандаровым⁸⁷, Н.К. Ульджабаевой⁸⁸, Н. Ачиловым⁸⁹ и другими авторами. Научная работа Т. Рашидовой непосредственно связана с рассматриваемой темой, в которой на основе требований того времени изложены взгляды на культурно-духовную жизнь и деятельность средств массовой информации в Сурхандарьинской области в 1952–1965 годах⁹⁰. В годы Второй мировой войны в целях сохранения «чистоты» марксистско-ленинской идеологии в литературе советская власть усилила политический контроль над произведениями представителей местной творческой интеллигенции. Любые литературно-художественные произведения, не соответствовавшие партийной идеологии и государственной политике, подвергались запрету и строгому надзору. В рамках данной политики широко применялись меры массовых ссылок и репрессий, в результате чего многие представители местной творческой интеллигенции были арестованы, а публикация их произведений оказалась под запретом. Несмотря на влияние столь жёсткого политического режима и проводимую политику, направленную против национальной литературы, в художественных произведениях продолжали находить отражение чаяния и надежды народа, создавались новые литературные образы и герои, отражающие различные исторические события и общественные процессы⁹¹.

Ко второй группе относятся научные труды и исследования, посвящённые освещению вопросов литературы и искусства советского периода, выполненные в Узбекистане в годы независимости. К таким

⁸⁴ Музыкальная фольклористика Узбекистана. – Т.: Госиздат, 1963. – С. 37.

⁸⁵ Эшкувватов О. А. История развития социалистических городов Карши и Шахрисабза (1925–1965 гг.). Автореф. дисс. ... канд. ист. наук. – Т., 1970. – С. 18.

⁸⁶ Шермухаммедов С. Рассвет и сближение национальных культур народов СССР. Автореф. дисс. ... докт. филос. наук. – Т., 1973. – С. 24.

